

## **SPORTCHILARDA GENDER USTANOVKALARING NOMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI**

Majidov Jasur Baxtiyarovich-JDPU,Umumiy psixologiya kafedrasi katta  
o‘qituvchisi, ps.f.b.f.d (PhD)

Omonliqova Dilnava- JDPU, Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada sportchilarda gender ustanovkalarning namoyon bo‘lishini empirik o‘rganishga oid taqqiqotning natijalari haqidagi malumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:**sportchi, gender, gender ustanovka, maskulinlik, femininlik jinsiy rol.

Bugungi kunda butun dunyoda sport inson faoliyatining eng ommalashgan turlaridan biri hisoblanadi. Ayni paytlarda sport faqatgina sog‘lomlashtirish funksiyasini bajarib qolmasdan, kuchli ijtimoiy hodisaga ham aylanib ulgurdi. Mamlakatimizda ham sport Davlat siyosatining nufuzli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sport inson organizmini morfologik va funksional jihatlardan takomillashtiradi. Bu degani, tanadagi barcha a’zolarni normal rivojlanishi, jumladan bosh miya va oliv nerv sistemasini to‘g‘ri shakllanishi hamda faoliyat yuritishini ma’lum normaga solishi deb tushunish mumkin. Bosh miya, oliv nerv sistemasi, qon aylanish tizimlari aqliy va boshqa tarbiya yo‘nalishlarining nerv-fiziologik asoslari bo‘lishi mumkinligini e’tirof etganda, beixtiyor sport insonni komillikka olib boruvchi asosiy tarbiya turi ekanligi tan olinadi.

Sport organizmni mukammal rivojlanishini yo‘lga qo‘yishi bilan birga, tananing sog‘lom bo‘lishini, har qanday tashqi yuklamaga chidamliligini ham ta’minlaydi. Insondagi irodaviy sifatlar jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanganda bir necha baravar ustun bo‘lishi olimlar tomonidan isbotlangan.

Bu borada Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Unsurul Maoliy Kaykovus, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Zahiriiddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi buyuk alommalarimiz jismoniy tarbiya va shaxs kamolati haqida qimmatli fikrlar bildirganlar.

Sport psixologiyasida sportchilarning psixologik tayyorgarligi va psixik holatlarini boshqarish mavzusi juda dolzarb bo‘lib, u A.S. Puni, Ye.P. Ilin, A.B. Alekseev, Yu.Ya. Kiselev, G.D. Gorbunov, I.P. Volkov, A.N. Nikolaev, P.A. Rudik, A.B. Rodionov, J.I.K. Serova, Yu.L. Xanin, V.F. Sopov va boshqalar tomonidan o‘rganib chiqilgan.

So‘nggi yillarda zamonaviy psixologiyada rivojlanayotgan gender yondashuv shaxsning jinsi bilan bog‘liq xususiyatlariga yangicha nazar bilan qarash imkoniyatini bermoqda.

“Gender” tushunchasi ostida sotsiomadaniy muhitda hayot davomida shakllanuvchi ijtimoiy yoki psixologik jins tushuniladi. (Gentile D., 1993; Unger R., Crawford M., 1993). Gender qurilishi manbai sifatida gender ustanovkalar,

ya’ni erkaqlar va ayollar xulq-atvor sifatlari va normlari haqidgi tasavvurlar xizmat qiladi (Kalabixina I. Ye., 1998; Jacklin S, 1989). Mazkur xulq-atvor normalari inson hayot faoliyatining barcha jabhalariga, jumladan sport faoliyatiga ham taalluqlidir.

“Gender” tushunchasi birinchi marotaba 1963 yilda R.Stoler ishlarida paydo bo‘lgan. Keyinchalik lingvistikadan kelib chiqqan (gender – tur) “gender” termini erkak va ayollarning jinsi – biologik – genetik, fiziologik va reproduktiv xarakteristikalari yig‘indisidan farqli o‘laroq madaniy tavsiflarini sharhlash uchun qo‘llanila boshlandi. “Gender” tushunchasi yordamida insondagi tabiiylikni orttirilgan (madaniylik)dan tuzilmaviy ajratildi. Tushunchaning kiritilishi XX asrning 30-yllarida M.Midning etnografiya bo‘yicha ishlarida kiritildi. M.Mid fikricha gender bu:

- ijtimoiy jins bo‘lib, u xususan shaxslilik va guruhiy xulq-atvor xususiyatlari va individning jamiyatdagi huquqiy va mavqe-ijtimoiy pozitsiyasini belgilashni taqozo etadi;

- biologik jins, morfologik va fiziologik xaraktristikalar majmuasi sifatida qatnashadi, erotik hissiyotlar va kechinmalar yo‘nalganligi va namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq individual xuljni ham aniqlaydi.

Ijtimoiy psixologiyada gender termini mazkur tushuncha ma’noviy mazmunining birinchi varianti bilangina bog‘liq psixologik reallikni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Bundan tashqari psixologik fan doirasida so‘nggi o‘n yilliklar mobaynida subektlarning u yoki bu ijtimoiy jinsga mansubligi mantiqida jinsi differensiatsiyasi psixologik tavsifini ko‘rib chiqishga qimmatli yondashuv yuzaga keldi. Ta’kidlash joizkui, dastavval “gender” tushunchasining o‘zi, keyinchalik “gender yondashuv, o‘zining paydo bo‘lishi bilan “ayollarga oid” deb atalmish tadqiqotlar bilan bog‘liq. Shunga o‘xshash keng qamrovli tadqiqotlardan biri Sandra Lipsis Bem tomonidan gender tafovutlarni o‘rganish borasidagi tadqiqotlarni aytib o‘tish mumkin. Uning 1993 yilda chiqqan “tender linzalari” monografiyasida jamiyat erkak va ayollarga ularning ishlari va imkoniyatlari haqidagi ma’lum ijtimoiy tavsiflarni kiritish haqidagi tasavvurlarbatafsil yoritilgan. Mazkur holatda jins – bu tarixiy taraqqiyot mobaynida orttirilgan ramziy ahamiyatli belgidir. Sandra Bem o‘z monografiyasida erkak va ayollar xulq-atvoridagi tafovutlar, ularning ijtimoiy pozitsiyalaridagi tafovutlar biologiklik tufayli, ya’ni jinsiy farqlardir degan keng tarqalgan fikr va ishonchlarni ko‘rib chiqib, jins va gender hayotiy sikl (ontogenetik) jarayonida qandy o‘zaro ta’irga kirishishini tahlil qiladi. Asosiy g‘oya bunda shu ediki, ijtimoiylik biologiklikka qaraganda ko‘proq o‘zgarishlarga moyil bo‘ladi. Bem nazariyasiga ko‘ra va kognitiv jarayonlar faoliyati prinsiplariga asosan insondagi idrok selektivdir, ya’ni u erkak va ayollarni qutbli idrok qilish odatiy sxemasiga joylashadi va reallikda hadan ziyod tarqalgan, lekin madaniyat orqali shakllangan idrok doirasiga hech ham sig‘maydigan narsalarni tanqidsiz qarab chiqmaydi .

S.Bem fikricha maskulinlik va femininlik yoki jinsiy rolli aynanlik global o‘lchovlarini izlash – aniq illyuzor vazifalardandir. “Erkaklar va ayollarni ajratib turadigan psixologik xususiyatlar va xulq-atvor tuzilmalari mazkur davrda va

mazkur madaniyatda, nafaqat ko‘p xil, balki turli ildizlarga ega bo‘lishi va turli individlarda nisbatan bog‘liq bo‘lmagan holda o‘zgarib turishi ham mumkin”.

Shunday qilib, Sandra Bemning “Tender linzalari” nazariyasi shaxsning gender xususiyatlari madaniy-tarixiy tarkibi va uning psixologik ustanovkalarini namoyon qiladi. Erkak va ayollar o‘rtasidagi ahamiyatli psixologik tafovutlarning mavjudligi o‘z o‘zidan hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Biroq bu boradagi empirik ma’lumotlar, ko‘p sonli tadqiqotlarga qaramasdan, yetarli emas va bir-biriga qarama-qarshi.

Faoliyatning shaxs sifatlari shakllanishiga ta’siri haqidagi holatlar munozarasiz ekanligiga qaramasdan, maskulin va feminine sport turlari bilan shug‘ullanish erkaqlar va ayollarga xos shaxslilik xususiyatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar juda kam.

Biz gender ustanovkalarning sport faoliyatidagi o‘rnini o‘rganish maqsadida tadqiqot olib bordik. Tadqiqotimiz ob’ekti sifatida Jizzax shahrida joylashgan Bolalar va o‘smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchilari tanlab olindi. Tadqiqotda sport sohasining taekvando turi bilan shug‘illanadigan 40 nafar qizlar, 40 nafar o‘g‘il bolalar ajratib olindi (1-jadval). Empirik tahlili amalga oshirishda quyidagi tadqiqot metodikalardan foydalanildi. Bular:

- Sandra Bemning Femininlik va maskulinlik diagnostikasi metodikasi;
- V.A.Soninning “Men bu dunyoda kimman” shaxs integral o‘zini baholashi metodikasi kabilar. Bu esa 2- jadvalda yaqqol o‘z ifodasini topgan.

Jadval 1.

Sinaluvchilar haqida ma’lumot.

Jinsi		Jami
O‘g‘il bolalar	Qiz bolalar	
40	40	80

Olingen natijalarning birlamchi tahlilini kuzatganimizda quyidagi holatlar aniqlandi. Sandra Bem metodikasi bo‘yicha natijalar tahlilida eng kichik qiymat - 2.212 ballga teng bo‘lsa, eng yuqori ball 2.145 ballga tengligini, o‘rtacha qiymat - 0.465 ballni ma’lumotlar umumlashtirilganda sinaluvchilarda androgenlik ustunlik qilishini kuzatishimiz mumkin.

“Men bu dunyoda kimman” shaxs integral o‘zini baholashi metodikasi 10 shkalasi bo‘yicha tahlil amalga oshirildi, sog‘liq shkalasi bo‘yicha olingen natijalarning o‘rtacha qiymati 3.738 ballni tashkil qilishi kuzatildi, bu natijaga ko‘ra sinaluvchilarimizda ob’ektiv bahoning mavjudligi ko‘rindi ular o‘z sog‘liqlarini ob’ektiv baholay olishlarini kuzatishimiz mumkin. Aql shkalasi bo‘yicha olingen natijalarning o‘rtacha qiymati 4.275 ballga tengligini kuzatishimiz mumkin. Bu sinaluvchilarimizning aksariyat qismi o‘zini aqli deb hisoblashidan dalolat beradi. Mehribonlik shkalasi bo‘yicha ham o‘rtacha qiymat 4.438 ballga tengligini kuzatishimiz mumkin, demak sinaluvchilarimizning aksariyati o‘zini mehribon deb bilishi aniqlandi. Rostgo‘ylik shkalasi bo‘yicha 4.575 ball olingenligi aniqlandi, bu shkalada ham sinaluvchilarimizning aksariyat qismi o‘zlarini rostgo‘y deb bilishlari aniqlandi, xushmuomalalik shkalasi bo‘yicha

o'rtacha qiymat 4.125 ballni tashkil qildi, demak sinaluvchilarimizda o'zlariga nisbatan xushmuomala sifatida talqin qilish tendensiyasi mavjudligini kuzatishimiz mumkin, Qat'iyatlilik shkalasi bo'yicha o'rtacha qiymat 4.538 ballga tengligi kuzatildi, demak sinaluvchilarimizning aksariyatida o'zlarini qat'iyatli deb hisoblashlari aniqlandi. Botirlik shkalasi bo'yicha o'rtacha qiymat 4.5 ballni tashkil qildi, bu sinaluvchilar sportchi bo'lganligi sabablimi o'zlari botir deb hisoblashlari kuzatildi. Yoqimlilik shkalasi bo'yicha olingan o'rtacha natija 4.3 tengligi kuzatildi, bu sinaluvchilarimizda o'zlarini yoqimli deb hisoblash ustunlik qilishini kuzatishimiz mumkin. Baxt shkalasi bo'yicha olingan natijalar diqqatga sazovordir, sinaluvchilarimizning o'rtacha ballari 5.1 ni tashkil qiladi. Bu shkala hamma shkaladan ko'ra yuqori natijaga egaligi ko'rindi, demak sinaluvchilarimizning aksariyat qismi o'zlarini baxtli deb hisoblashalari aniqlandi. Bu holatlar quyida keltirilgan jadvalda yaqqolroq ko'ringan.

Jadval 2.

### Natijalarning birlamchi tahlili

	minimal	Maksimal	O'rtacha	Stan. Og'ish	Assimetriya	Eksess
Sandra Bem	-2.212	2.145	-0.465	1.475	0.503	-1.149
Sog'lik	1	7	3.738	2.011	1.252	4.304
Aql	2	7	4.275	1.136	0.020	-0.568
Mexribonlik	3	6	4.438	0.966	0.138	-0.909
Rostgo'ylik	1	7	4.575	1.281	-0.524	-0.004
Xushmuomalalik	2	6	4.125	1.363	-0.262	-1.013
Qat'iyatlilik	2	7	4.538	1.158	-0.370	-0.307
Ochiqlik	2	6	4.575	1.281	-0.783	-0.184
Botirlik	1	7	4.500	1.876	-0.572	-0.812
Yoqimlilik	1	7	4.300	1.858	-0.149	-1.064
Baxt	3	7	5.100	1.063	-0.593	-0.690

Yuqoridagi qator faktlar va natijalarga asoslanib aytishimiz mumkinki, gender utanovkalar faoliyatning sport turida ham ma'lum bir ahamiyat kasb yetib, bevosita shaxsning o'z-o'zini anglashi, xulq-atvori va o'z-o'ziga bahosida namoyon bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- Султанов Т.Н. Психологические особенности преодоления экстремальных ситуаций спортсменами различных специализаций. //Автореф. канд. дис. М. 2008. 2-бет
- Меренков А.В. Сотсиология установкаов. – Екатеринбург: Изд-во Урал. Ун-та, 2001, с. 161.
- Кон И.С. Социологическая психология. М. 2009 г
- Агеев В.С. Психологические и социальные функции полоролевых установкаов. В кн. Психология семи. Хрестоматия. Под ред. Д.Я.

- 5.Илин Е.П. Дифференциальная психофизиология. СПб., 2001.Илин Е.П. Оптимальные характеристики работоспособности человека/Двтореф.докт.дисс. Л. - 1968. - 32 с.
6. Илин Е.П.Психология спорта. Санкт-Петербург. Питер. 2008 г.
- 7.Rejametova, I. (2025). HARBIY XIZMATCHILARNING OILASINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK MOSLASHUVIDA MUOMILA VA UNING ROLI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 5(1), 39-50.
- 8.Режаметова, Н. И. (2024). МОДИФИКАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ И ПРАКТИКЕ ДОШКОЛЬНОЙ МУЗЫКАЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 31), 380-382.
- 9.Rejametova, N. I. (2020). Increasing the effectiveness of the professional competence of music leaders in the formation of children's creativity through Uzbek folk instruments. *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 472-477.
- 10.Ikramshikovna, R. I., & Nishanbayevich, D. A. (2025). Regulatory and legal aspects of first aid in international legislation and in the republic of Uzbekistan. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 7(02), 7-16.
- 11.Режаметова, И. И., & Норбулаев, С. А. (2022). YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(3).
12. Rejametova, I. I. (2025). HARBIY XIZMATCHILARNING OILASINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK MOSLASHUVIDA MUOMILA VA AHAMIYATI. *Modern education and development*, 21(2), 67-79.
- 13.Ikramshikovna, R. I. (2025). BOLALARDA XULQ OG 'ISHINI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI. *Modern education and development*, 21(2), 45-54.
- 14.Mukhamedova, D. G., & Abdullajanova, D. S. (2020). The actuality of the gender aspect of the manager's constructive interaction in the conflicting situation. *Journal Of Critical Reviews*, 7(12), 228-231.
- 15.Akhmadjonova, S., & Abdullajanova, D. (2023). Socio-Psychological Features Of Family Conflict Resolution. In *Academic International Conference On Multi-Disciplinary Studies And Education* (Vol. 1, No. 6, pp. 101-108).
- 16.Abdullajanova, D., & Raxmonova, Z. (2020). Motivation to succeed, to avoid defeat and the impact of risk preparedness on women's activism and its socio-psychological factors. *European Journal Of Molecular And Clinical Medicine*, 7(1), 3555-3561.
- 17.Abdullajanova, D. S. (2023). Socio-psychological criteria for the selection and placement of personnel in management (on the example of women). *Confrencea*, 5(05), 401-411.

18. Abdullajanova, D. S. (2023). Socio-psychological criteria for the selection and placement of personnel in management (on the example of women). *Confrencea*, 5(05), 401-411.
19. Абдуллажанова, Д. С. (2023). ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В НАПРАВЛЕНИИ ЖЕНСКОЙ АКТИВНОСТИ В УПРАВЛЕНИИ. *ПСИХОЛОГИЯ XXI СТОЛЕТИЯ*.
20. Мухамедова, Д. Г., & Абдуллажанова, Д. С. (2021). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КАДРОВОГО РЕЗЕРВА: ФОРМЫ И МЕХАНИЗМЫ ИННОВАЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ. *BEING A MUSIC FAN: FANDOM EFFECTS ON THE PSYCHOLOGICAL WELL-BEING OF ITS PARTICIPANTS*..... 12, 187.
20. Абдулладжанова, Н. Г., Абдугафурова, Д. Г., Якубова, Р. А., Назирова, Э. Р., & Раҳмонова, Г. Г. (2020). ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕПАРАТОВ. *Universum: химия и биология*, (12-1 (78)), 80-84.
22. Kadirov, K. B., Mullabaeva, N. M., Abdullajanova, D. S., Kurbanovna, A. D., & Abdullaevna, B. S. (2023). A Mobbing Questionnaire In School And An Analysis Of The Results Obtained. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 23(4).
23. Abdullajanova, D. S. (2025). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MOTIVATION FOR SUCCESS AND THE IMPACT OF RISK ON WOMEN. *Modern education and development*, 19(1), 3-12.
- Абдуллажанова, Д. (2024). Социальная критерия как фактор формирования психологического портрета женщин-руководителей в управленческой деятельности. *Общество и инновации*, 5(5), 85-93.
24. Abdullajonova, D. S. (2024). Social-Psychological Adaptation to the Educational Environment-As a Factor of Educational Efficiency. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(4), 58-60.
25. Abdullajonova, D. (2024). Sand in the image of relatives to establish education in the national spirit through races. *Science and innovation*, 3(B2), 34-39.
26. Abdullajanova, D., & Raxmonova, Z. (2020). Motivation to succeed, to avoid defeat and the impact of risk preparedness on women's activism and its socio-psychological factors. *European Journal Of Molecular And Clinical Medicine*, 7(1), 3555-3561.
27. Dilnozakhan, A., & Dilfuza, J. (2023). Problems of adaptation of children of primary school age to school and methods of their elimination. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(2), 295-300.
28. Mukhamedova, D., Abdullajanova, D., Tukhtabekov, K., Fuzailova, G., Babadjanova, S., & Rahmonova, Z. (2019). The main directions of accounting socio-psychological characteristics of the manager of education in the process of optimizing management activities in Uzbekistan. *Journal Of Advanced Research In Dynamical And Control Systems*, 11(10 Special Issue), 1035-1038.
29. Abdullajonova, D. (2025). SOCIO-PSYCHOLOGICAL CRITERIA FOR THE FORMATION OF A PSYCHOLOGICAL PORTRAIT IN THE PREPARATION

- OF PERSONNEL FOR INNOVATIVE MANAGEMENT . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 5(1), 21–29. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/1054>
- 30.Abdullajonova, D. (2025). THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AN EDUCATION MANAGER IN A HIGHER MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTION. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 5(1), 30–39. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/10545>
- 31.Abdullajanova, D. S. (2025). PSYCHOLOGICAL CRITERIA OF FORMATION OF PSYCHOLOGICAL PORTRAIT IN TRAINING PERSONNEL FOR THE INNOVATION MANAGEMENT PROCESS. *Modern education and development*, 21(2), 55-66.
- 32.Abdulakimovna, S. S. (2024). Methods for Developing Cooperation Between the Family, Neighborhood, Educational Institution in the Socialization of Adolescents with Disabilities. *Journal of Diplomacy, Law, and International Affairs*, 1(1), 6-8.
- 33.Шакарбоева, Ш. А. (2024). МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА СЕМЬИ, СОСЕДСТВА, ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ЗАВЕДЕНИЯ В СОЦИАЛИЗАЦИИ ПОДРОСТКОВ С ТРУДНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 211-215.
- 34.Shakarboeva, S., & Gulomitdinov, D. (2023). PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL VIEWS OF ABU RAIKHAN BERUNI AS A FACTOR OF EFFECTIVENESS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *World Bulletin of Management and Law*, 21, 30-33.
- 35.Shakarboyeva, S., & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONYATLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 148-154.
- 36.Мунарова, Р. У., Камолова, Ш. У., Шакарбоева, Ш. А., & Каршибоева, Д. Б. (2016). Алимкулов СОУ Великие мыслители Средней Азии о воспитании гармоничного и всесторонне развитого поколения. *Проблемы педагогики*, (2), 13.
- 37.Шакарбоева, Ш. (2024). Бошланғич синфларда чет тили ўзлаштириш ва ўрганишнинг ёшга оид хусусиятлари. *Общество и инновации*, 5(10/S), 286-290.
- 38.Abdulakimovna, S. S. (2021). Socially Psychological Education of Self-Development Skills in Future Teachers Functions. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 1(5), 231-235.
- 39.Usarovna, K. S., Muhammedovna, Y. F., Shodiyevna, O. D., & Shakhnoza, S. (2022). The Importance of Cognitive Processes in the Formation of a Scientific Worldview among Students. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(2), 78-83.
- 10.Шакарбоева, Ш. А. (2021). САМОРАЗВИТИЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ПРЕДМЕТ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ. In *Стратегия научно-технологического развития-2021* (pp. 39-40).

- 41.Мунарова, Р. У. (2016). Камолова Ширин Усаровна, Шакарбоева Шахноза Абдулакимовна, Каршибоева Дилфузা Бурлиевна, & Алимкулов Сирожиддин Олимжон ўғли (2016). *Великие мыслители Средней Азии о воспитании гармоничного и всесторонне развитого поколения. Проблемы педагогики*,(2 (13)), 17-19.
- 42.Abdulakimovna, S. S. (2021). Socially Psychological Education of Self-Development Skills in Future Teachers Functions. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 1(5), 231-235.
- 43.Munarova, R. U. (2016). Kamolova Sh. U., Shakarboeva Sh. A., Karshiboeva DB, Alimkulov SOU (2016) *Velikie misliteli Sredney Azii o vospitanii garmonichnogo i vsestoronne razvitetogo pokoleniya. Problemi pedagogiki*,(2), 13.
- 13.Shakarboeva, S. A. (2024). METHODS OF DEVELOPING COOPERATION OF THE FAMILY, NEIGHBORHOOD, AND EDUCATIONAL INSTITUTION IN THE SOCIALIZATION OF TEENAGERS WITH DIFFICULT EDUCATION. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(5), 920–924. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/2409>
- 44.Shakarboeva Shakhnoza Abdulakimovna. (2022). Social-Psychological Characteristics Of Professional SelfDevelopment Of Future Teachers. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 14, 138–140. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/2799>
- 45.Shakarboyeva, S., & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARНИ RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 148-154.
- 46.Камолова, Ш. Ў., Мунарова, Р. Ў., & Шакарбоева, Ш. А. (2019). Ўқув фаоллигига асосланган муносабат мотивацияси-муваффакият калити. *Бола ва замон*, 4, 47-48.
- 47.Ruzieva, D. I., Rustamova, N. R., Sunnatovich, D., & Tursunov, A. J. K. (2020).The Technology of Developing Media Culture in Higher Educational Students. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(09).
- 48.Акчаев, Ф. Ш., & Турсунов, Д. С. (2016). Трансформация святыни" Парпиойим" или Умай-она. *Социально-экономические науки и гуманитарные исследования*, (14), 143-146.
- 49.Qizi, T. I. A., & Diyor, T. (2023). "UNIVERSITET 3.0"-XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASINING O 'RNI: KONSEPSIYAGA BOSQICHMA-BOSQICH O 'TISH VA METODLARNI O 'RGANISH. *Scienceandinnovation*, 2 (SpecialIssue 14), 159-161.
- 50.Sunnatovich, T. D., & Ismatovna, R. K. (2023).BOSHLANG'ICH SINF TARBIYA FANLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH. *Tafakkurmanzili*, 4, 91-97.
- Sunnatovich, T. D. (2024). OLIY TA'LIM MUASSASALARI
- 51.TALABALARINING IMIJINI YARATISH IMKONIYATLARINI OCHIB BERISH. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(1), 194-196.
- 52.Boltaboev, A., Mamarakhimov, O., Islamov, A., Kuchkarov, T., & Tursunov, D. (2024). Study on fauna, biology and ecology of Miridae (Hemiptera-Heteroptera)

- in agro-biocenosis and natural ecosystems of Uzbekistan. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 149, p. 01064).EDP Sciences.
- 53.Sunnatovich, T. D., &Ismatovna, R. K. (2023).BOSHLANG‘ICH SINF TARBIYA FANLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH. *Tafakkurmanzili*, 4, 91-97.
- 54.Sunnatovich, T. D. (2022). TA’LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVNING O’RNI VA AHAMIYATI. *ko ‘nikmalarini ommalashtirishda talabalarning roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy*, 406.
- 55.Турсунов, Д. С. (2017). МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИ ЎРГАНИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ УМУММАДАНИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 32, pp. 62-65). Общество с ограниченной ответственностью Научно-издательский центр" Социосфера".
- 56.Tursunov, D. S. (2017).Opportunities of Implementing National Heritage in Forming General Cultural Competence of Students. *Eastern European Scientific Journal*, (5), 137-140.